

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Каримов</b> Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
<b>D.E.Normatova</b> Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
<b>B.E.Xusanov</b> Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
<b>N.M.Axmadiyev</b> Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
<b>N.N.Teshayev</b> Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....	223
<b>K.G’.Kamolova</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....	227
<b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b> Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
<b>K.U.Sharipova</b> Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
<b>S.A.Xayrullayev</b> Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
<b>O’.X.Rajabov</b> Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....	248
<b>Sh.T.Abbosova</b> Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....	251

---

SIYOSAT

<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
<b>A.A.Abdilxamedov</b> Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
<b>B.Y.Paluaniyazov</b> Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
<b>U.M.Kuranov</b> Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....	270

---

ТАРИХ

<b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b> O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
<b>M.X.Исамиддинов</b> Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
<b>X.Raxmatillayev</b> Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....	314
<b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b> Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....	318
<b>N.S.Abdullayeva</b> Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
<b>S.B.Xakimova</b> “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
<b>Ш.Т.Темиров</b> Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие .....	332

## HUQUQBUZARLIK PROFILAKTIKASI TUSHUNCHACINING MAZMUN-MOHİYATI VA XUSUSIYATI

## СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА ПОНЯТИЯ ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ

## THE CONTENT AND CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF CRIME PREVENTION

**Abdilxamedov Abbos Abilatibovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchacining mazmun-mohiyati va xususiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy tarbiyalash va huquqbuzarliklar sodir etishini oldini olish borasidagi masalalari yoritilgan.

**Аннотация**

В данной статье научно проанализировано содержание профилактики преступности и ее особенности. Также в статье освещены актуальные вопросы, связанные с нравственным воспитанием молодежи в нашей стране и профилактикой совершения преступлений.

**Abstract**

This article scientifically analyzes the content of crime prevention and its features. The article also highlights current issues related to the moral education of youth in our country and the prevention of crime.

**Kalit so'zlar:** davlat, siyosat, huquqbuzarlik, profilaktika, globallashuv, yoshlar, ma'naviyat, ma'rifat.

**Ключевые слова:** государство, политика, преступность, профилактика, глобализация, молодежь, духовность, просвещение.

**Key words:** state, politics, crime, prevention, globalization, youth, spirituality, education.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqilligini ilk kunlaridanoq o'z oldiga huquqiy davlat va odil demokratik fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilib olgan edi. Albatta bu maqsadni amalga oshirishda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlatni barpo etish yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash, fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu haqda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yunalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda"[1], - deya ta'kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi tezkor globallashuv jarayoni yoshlar masalasida har bir davlat siyosatida alohida e'tibor qaratishni taqoza etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida "**inson qadri uchun**" ulug'lash ustuvor vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, jamiyatimizda tobora yuksalib borayotgan demokratik taraqqiyot jarayonlarining poydevorini inson omili tashkil etadi. Asosiy maqsad jamiyatni yangilash orqali har bir shaxsga hech kimdan kam bo'lmagan munosib turmush sharoitlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bu yangi davrning eng muhim va ustuvor xususiyatlari, avvalo, mamlakatimizda davlat va boshqaruv organlari, barcha rahbarlar bundan buyon o'z faoliyatini "Inson – jamiyat – davlat" va "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyillar asosida olib borishida aks etadi"[2]. Chunki, jamiyatda olib borilayotgan o'zgarishlar, innovatsion yangiliklar markazida birinchi navbatda "inson" manfaati, qadridan kelib chiqib yondashilayotganligi bugungi kunda tarbiyalanayotgan yoshlarimizga kelgusida o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishiga zamin yaratadi.

Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borayotganligi yoshlarni turli buzg'unchi ma'naviy-mafkuraviy oqimlar va harakatlar ta'siriga tushib qolishini keltirib chiqarmoqda. Bu esa yoshlar orasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish bilan bog'liq ma'naviy tarbiyaning innovatsion usul va omillarini yaratishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugun dunyo aholisining 20 foizini[3] yoshlar tashkil etib, ular orasida 2022 yil natijalari bo'yicha 15–24 yosh oralig'idagi yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 176 mamlakat

orasida o'rtacha 16,72 foizni tashkil etgan[4]. Dunyo olimlari tomonidan ishsizlik huquqbuzarlik yuzaga kelishi uchun eng katta omil sifatida baholanib kelinadi[5]. Zero, yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonlari serqirra tus olayotgan davrda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy omillarga e'tibor qaratish, u bilan bog'liq kompleks tadbirlarni ishlab chiqish, yoshlarni o'ziga jalb qilib oladigan yangicha yo'nalishdagi, zamonaviy ahamiyatga ega, innovatsion mexanizmlarni ular o'rtasida qo'llash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ma'naviy jihatdan tarbiyalash jarayonida kuzatilayotgan muammo va yuzaga kelayotgan kamchiliklarning ilmiy asoslangan yechimlarini tadqiq etish o'zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mamlakatimizda yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar, yoshlarning ma'naviy tarbiyalash va huquqbuzarlik sodir etishlarini oldini olish, bu boradagi ishlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi yoshlarga qaratilgan e'tiborning naqadar dolzarbligini belgilaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 11-aprel kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida mamlakatimizda yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni tanqidiy muhokama etilib, mutasaddi vazirlik va idoralar uchun ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, mazkur yig'ilishda davlatimiz rahbari: "Ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi, xavfsizligimiz masalasi"[6] -deb ta'kidlagan edi. Bu esa yoshlar bilan amalga oshirilayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasining ma'naviy omillarini tadqiq qilishga, bu boradagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga sabab bo'lmoqda.

Shu o'rinda, huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan nafaqat ichki ishlar organlari, balki jamiyatdagi barcha davlat va nodavlat organlari, shu bilan birga faylasuflar, huquqshunoslar, pedagoglar, ma'naviyatchilarning shug'ullanishlari o'zining ijobiy natijasini beradi. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasining ma'naviy - ma'rifiy omillari bilan bog'liq jihatlari, ya'ni yoshlarning axloqi, odobi, tarbiyasi, unga mas'ul bo'lgan "oila-maktab-mahalla" rolini bu boradagi ta'sirini kuchaytirish, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqib, jamiyat hayotiga tatbiq etish dolzarb masala sifatida ko'rilmogda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi munosabatlarini zamon talablari asosida rivojlantirish, uni tartibga soluvchi normativ bazani modernizatsiya qilish hamda bu boradagi amaliy faoliyatni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri - ushbu sohadagi ilg'or xorij tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, tahlil qilish va milliy tizimga tatbiq etish xisoblanadi. Xorijlik huquqshunos Yu.Voroninning fikriga ko'ra, ijobiy horij tajribalarini o'rganish politsiya faoliyatida kuzatilayotgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish imkonini beradi[7].

Yoshlar o'rtasida nazoratsizlikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasidagi horijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, ularni uyushtirishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish muammolarining ilmiy yechimlarini topish dolzarb axamiyat kasb etmokda. Shu nuqtai-nazardan rivojlangan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda uning natijalarini milliy tizimga tatbiq etish tadqiqot ishidan ko'zlangan birlamchi vazifa xisoblanadi.

AQSh jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi (ayniqsa, yoshlar o'rtasida) amaliyotida ijobiy natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Tahlillar ushbu davlatda voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasini ta'minlash bo'yicha o'ziga hos normativ baza shakllanganligini ko'rsatadi. Masalan, 2002-yilda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi va sudlovi to'g'risida"gi qonun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashning huquqiy mexanizmlarining kodifikatsiya qilinganligi bu boradagi masalaga davlatning aniq pozitsiyasi mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari to'g'risidagi federal kodeks voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sud tartibida hal etish mexanizmlarini belgilab beradi.

AQShda jinoyatchilikka qarshi kurashishning «mutlaq murossasizlik» («zero tolerance») doktrinasini tatbiq etilganligini ko'rish mumkin. Ilgaridan joriy etilgan uch bo'g'inli (federal, shtat va

## SIYOSAT

mahalliy darajadagi) huquqni muhofaza qilish tizimida faoliyat olib boruvchi politsiya xodimlarining 60 % mahalliy bo'lgan xisobiga to'g'ri keladi. Ular aholi bilan bevosita hamkorlikda ish olib boradi.

XX asrning 90 yillarida mamlakatdagi barcha innovatsion resurslar jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan:

1) huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishni ta'minlash maqsadida jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun politsiyani mahalliy aholiga yaqinlashtirishga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan ishlarni kuchaytirish;

2) o'ta og'ir turdagi jinoyatlar uchun jazo tizimini keskin kuchaytirish;

3) ommaviy ahborot vositalarida murossasizlik doktrinasi bo'yicha «Xuquqbuzarlik to'xtatilishi kerak, sodir etilgan jinoyat jazolanadi» tamoyili yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirish.

4) fuqaroning majburiyatlari va jinoyat huquqi asoslari, huquq- tartibotni buzuvchilarni kutayotgan jazoga doir bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. O'rganilgan dasturlarning barchasi yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashga maxsus yo'naltirilganligini ko'rish mumkin.

AQShda ijobiy natija bergan maxsus dasturlardan yana biri yoshlar o'rtasida giyohvandlik profilaktikasiga qaratilgan. Dastur yordamida so'nggi 15 yilda giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning ko'rsatkichi 50 %ga kamayishiga erishilgan. Davlatda giyohvandlikka qarshi kurashuvchi 3,5 ming jamoatchilik tashkiloti faoliyat yuritadi[8].

Ushbu davlatda mazkur sohada samarali faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlar ulushi ham yuqoriligini ko'rish mumkin. Jumladan, 1991-yilda tashkil etilgan «*Xalqaro hayotiy moslashtirish (International life skills)*» tashkiloti (unga dunyoning 27 ta, jumladan, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Italiya davlatlari) a'zo bo'lib, mazkur dastur yoshlarning xayotiy bilimlarini shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan[9].

#### TADDIQOT METODOLOGIYASI

O'rganilayotgan yo'nalishdagi rivojlangan mamlakatlar (shu jumladan, AQSh, Kanada, Britaniya, Germaniya, Xindiston, Avstraliya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi ularda tatbiq etilgan maxsus dastur hamda loyihalarga bevosita bog'liqdir. «Qo'shnilar nazorati (neighborhood watch)», «Jinoyatchilikni to'xtatamiz (crimes toppers)», «Tashqi muxitni tashkil etish orqali huquqbuzarliklar profilaktikasi dasturi (Crimeprevention through environment design (broken window) (Huquqbuzarliklar profilaktikasini tashqi muxitdan kuzatuv ostiga olish (siniq oynalar)», «Safety City (Havfsiz shahar)» kabi dasturlar shular jumlasidan bo'lib, bugungi kunda amaliyotda ijobiy natijalar berib kelayotganligini kuzatish mumkin.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta bu kabi dastur va loyihalarning amaliyotga tatbiq etilishi hususiyatiga ko'ra barcha mamlakatlar amaliyotida ijobiy natija berishi shubxasiz. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan «Xavfsiz poytaxt», «xavfsiz shaxar», «xavfsiz turizm» apparat-dasturiy kompleksi ishga tushirildi. Shu o'rinda huquqshunos olim M.Ziyodullaev ta'kidlaganidek, hududning jug'rofiy joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hususiyatlari, kriminogen va tezkor vaziyatidan kelib chiqqan holda differensial yondashuvni ta'minlaydigan na'munaviy modellarni ishlab chiqish hamda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir[10].

Shu o'rinda mamlakatimizda voyaga yetmagan yoshlarning huquqbuzarlik va jinoyatchiligini oldini olishda **profilaktika tizimi** muhim omil sanaladi.

Huquqbuzarlikning oldini oluvchi profilaktik tashkilotlar bajaradigan vazifasiga qarab to'rt darajaga bo'linishi mumkin.

1) *Birlamchi ijtimoiy profilaktika tashkilotlari* – ta'lim va tibbiyot muassasalari bo'lib, ular yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiladi, ta'lim-tarbiya beradi, ularning oqilona ijtimoiylashuviga yordam beradi.

2) *Birlamchi ijtimoiy profilaktik tashkilotlarning keyingi darajasi* – ijtimoiy uylar, cheklangan imkoniyatli bolalar uchun moslashuv markazlari, oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari, psixologik-tibbiy ijtimoiy markazlar, internetdan keyingi ijtimoiy moslashuv markazlari va boshqalar bo'lib, ular asosan ijtimoiy moslashmagan, qiyin hayotiy ahvolda qolgan bolalarga yordam ko'rsatishadi. Ular huquqbuzarlik sodir etish xavfi bo'lgan bolalar bilan ishlashadi.

3) *Maxsus profilaktikaning ikkilamchi muassasalari*-ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bo'linmalari, ochiq va yopiq maxsus o'quv-tarbiya muassasalari

4) *Jinoiy – huquqiy va jinoiy –ijroiya profilaktikasi muassasalari* – tarbiya koloniyalari bo'lib, ularning asosiy vazifasi voyaga yetmaganlarning residiv jinoyatchiligini oldini olishga qaratilgan.

Yoshlarning faolligi, kreativ fikrlashi, innovatsion g'oyalar asosida yangiliklarga intilishi mamlakatning barcha sohalarda intensiv taraqqiyotini ta'minlab beradi.

#### XULOSA

Shu bilan bir qatorda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar”ga bag‘ishlangan ustuvor vazifalarda yoshlar muammolariga alohida e‘tibor qaratilgani, yoshlarni har tomonlama kamol topishi uchun 2030-yilga qadar bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirishimiz lozimligi ta’kidlangan. Jumladan:

- Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish;
- Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish;
- Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish;
- Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish;

- Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish;
- Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish[11]kabi masalalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda Prezientimiz Shavkat Mirziyoyev: “yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, oilaviy ajrilishlar, buzg‘unchi va radikal oqimlar ta’siriga tushish holatlari davom etayotgani, davlat rahbari sifatida shaxsan meni jiddiy tashvishga solmoqda”[12],- deya ta’kidlagani bejiz emas albatta. Zero, buyuk ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan so‘zlari zamirida mamlakatimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni tarbiyalashda barcha yurtdoshlarimizni teran fikrlashga da’vat etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент - «Ўзбекистон» - 2017. 32-бет
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 9. (440 б
3. Раҳмоналиев Б. Бош мақсад – ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш // URL – <https://uza.uz/posts/263117> – электрон манба
4. Youth unemployment – Country rankings // URL –[https://www.theglobaleconomy.com/rankings/Youth\\_unemployment/](https://www.theglobaleconomy.com/rankings/Youth_unemployment/) – электрон манба
5. Финогенов И. Безработица как один из факторов, влияющих на формирование преступности // Молодой ученый. — 2023. — № 24 (471). — С. 317-319. — URL: <https://moluch.ru/archive/471/104112/> – электрон манба; Озерский С. Влияние уровня безработицы на уровень преступности: противоречивые аспекты // Юридические науки. – 2023. – С. 67-72; Tranaes, Torben (2015) : Active labor market policies and crime, IZA World of Labor, ISSN 2054-9571, Institute for the Study of Labor (IZA), Bonn, <https://doi.org/10.15185/izawol.185> – электрон манба
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида 2023 йил 11 апрель куни ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси
7. Воронин Ю.А. Предупреждение преступлений в зарубежных странах // Вестник Челябинского государственного университета. — 2012. — № 27 (281). С. 86
8. Дородонова Д.Н. Регулирование вопросов по организации профилактики правонарушений несовершеннолетних в зарубежном законодательстве: история и современность // Вестник Саратовской государственной юридической академии. - 2017. -№ 5 (118). - С. 195.
9. Кицул И С Перфильева Н.В. Отечественный зарубежный опыт профилактики наркомании среди населения // Сибирский медицинский журнал. - 2005. - № 5. - с. 6
10. Зиёдуллаев М.З. Ички ишлар органларининг таянч пунктларини бошқаришни такомиллаштириш: Монография. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2018. - Б. 274-275
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон фармони.[lex.uz](http://lex.uz)
12. Шавкат Мирзаёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти. 2021.Б- 253.